

HAR BIR TUPROG‘I TARIX, HAR BIR NAFASI DUOLAR SADOSI

Asadbek Inomaliyev Ilxomjon o‘g‘li

Oriental Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Vatanimiz haqida so‘z yugurtiriladi. Men bu maqolani maktabimiz darsligi bo‘lmish “Tarixdan hikoyalar 5” nomli kitobimizning kirish qismidagi “O‘zbekiston- Vatanim manim” mavzusidan ilxomlangan holatimda yozishlikka qaror qildim. Bu esa mening Vatanga bo‘lgan muhabbatim desam ham yanglishmagan bo‘laman. Bu maqolada O‘zbekiston shunchaki xaritada hudud emas, balki har bir yurakdagi eng muqaddas makonlardan biri sifatida tasvirlanadi. Unda har bir tuprog‘ida tarix, har bir shamolida ajdodlar nafasi eshitiladigan yurtimizning ruhiy qiyofasi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: vatan, tarix, Amir Temur, Turon, Sagdullayev, Temur tuzuklari, Movorounnahr, Tabariy, Balazuriy, Bayhaqiy, Narshaxiy, Turkiston

Kirish

Vatan! Bu so‘z zamirida olam-olam ma‘no bor. Vatan- aziz, muqaddas va mo‘tabar yurt. Vatan- biz tug‘ilgan makon. Kindik qonimiz tukilgan tuproq. Vatan- bu oltin beshik. Ota- onamiz, qarindoshlarimiz va do‘stlarimiz bilan birga yashayotgan zamin. Bobolarimizning izlari qolgan yer. Ajdodlarimiz yurti, yurakdagi javohiridir. Vatan- jonajon shaxrimiz va qishlog‘imizdir. Insonning qalbi, orzu-umidlari, quvonchlari va kelajagi Vatani bilan chambarchas bog‘liqdir. “Muqaddas Vatan” brikmasi “Mo‘tabar ona” brikmasi bilan yonma-yon turadi. Chunki Vatan ham ona kabi yagonadir. Siz kinofilimlarda turli sabablarga ko‘ra uzoq muddat chet ellarda bo‘lib, o‘z Vatanga qaytgan kishilarning samalyotdan yoki poyezdan tushgach tiz cho‘kib, ona Vatanlarining tuprog‘ini o‘pganlarini va ko‘zlariga surtganlarini ko‘rgansiz. Bu manzarada ularning Vatanga bo‘lgan muhabbatlari, Vatanning sajdagohdek muqaddas ekanligining yorqin namunasi aks etgan.

Vatanimiz bo‘lmish bu- O‘zbekiston o‘tmishda Turon, Movorounnahr va Turkiston nomlari bilan ataldi. Yurtimiz o‘zining go‘zal tabiati, unumdor tuprog‘i, bitmas-tugalmas boyliklari bilan doim barchaning e‘tiborini tortib keladi. Davlatimiz sal kam uch ming yillik tarixga ega. Bu davrlarda mamlakatimizdan jahon ilm-fanning rivojiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk allomalar yetishib chiqdi.

Dunyodagi zo‘ravon kuchlar qaysi bir xalqni o‘ziga tobe qilmoqchi, bo‘ysundirmoqchi bo‘lsa, avvalo uning oliy qadriyati bo‘lgan tilidan, tarixidan va ma‘naviyatidan judo qilishga urinishadi. Bizning o‘tmish tariximiz bunga guvoh. Hech kimga mute bo‘lib qolmasligimiz uchun o‘z tariximizni bilishligimiz va uni ishonchli manbalardan izlab o‘rganib chiqishligimiz zarur bo‘ladi. Bizning tinch yurtimizga rahna solib yomon nazarda qarab turganlar esa kam emas. Biz ulardan nafaqat qurolli kuchlar orqali balki, ma‘naviy hamda virtual shaklda ham himoya qilishligimiz lozim bo‘ladi. Shu kungacha kim o‘z vatanini himoya qilgan bo‘lsa yoki unga fidoyilik qilgan bo‘lsa hamisha har zamonda va har qanday shaklda faqat maqtalib, insonlarning qalbida iliq bir tuyg‘u uyg‘otib kelganligi rost azizlar!

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” kitobida: “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”, deb bejiz ta’kidlamaganlar. Bu so‘zlar Bizni Vatanimizning nafaqat uzoq o‘tmishidagi tarixini, ayni payitda kechagi tarixini ham chuqur egallashga da’vat etadi. Vatanimizning o‘tmishi buyuk, uning kelajagi ham, shubhasiz, buyukdir. O‘tmishdagi buyuklik nimalardan iborat bo‘lganligini va kelajakdagi buyuklik yo‘lida qanday ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotganligini tarix fanini bosiqchma- bosqich o‘rganish orqali bilib olasiz.

Asosiy qisim

Vatan- bu shunchaki tuproq yoki geografik makon emas, balki insonning ma’naviy ildizi, uning o‘zligini anglash manbai. Vatan inson va jamiyat o‘rtasidagi eng chuqur ruhiy bog‘liqlik bo‘lib, tug‘ilishdan to umirining oxirigacha kishining qalbida yashaydi. Vatan- bu onaning allasi singari qalbni tinchlantirguvchi qo‘shiq, har bir yaprog‘ida tarixning nafasi, har bir qum zarrasida ajdodning duosi. U ko‘z nuri bilan yaralgan manzara, yurakdagi eng muqaddas makon. Vatan-sevgi, Vatan- sog‘inch, Vatan- orzu.

“Turon” qadimdan Markaziy Osiyo hududlarini ifodalovchi nom sifatida ishlatilgan. Turon- tarixiy- geografik atama bo‘lib, u asosan Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i, Zarafshon, Farg‘ona, Xorazim, hatto ba’zan Sharqiy Turkiston hududlarini ham qamrab oladi. “Turon” atamasi qadimgi manbalarda “eroniy xalqlar yashamaydigan, ammo turkiy va boshqa ko‘chmanchi qavmlar istiqomat qiladigan yurt” sifatida talqin qilingan. Fors-tojik adabiyotida (masalan, Firdavsning “Shohnoma” asarida) Turon Eronning qarama-qarshi yurtidir. Unda Turon podshohlari (Afrosiyob va boshqalar) haqida ko‘plab rivoyatlar keltiriladi. Tarixshunos Sagdullayev Turon atamasini afsonaviy hudud emas, balki real tarixiy- geografik makon sifatida tushuntiradi. Ayniqsa, qadimgi sak- massagetlar, so‘g‘dlar, xorazimiylar yashagan joylar Turon deb atalgan. Keyinchalik, o‘rta asrlarda ham bu nom xalq xotirasida saqlanib, “Turon eli”, “Turon yurti” kabi iboralar orqali qo‘llanib kelgan. Amir Temur o‘zining tuzuklarida Turon va Eron mamlakatlari hukumdori deb ataydi. Bu orqali u o‘z saltanatining sharqiy (Turon) va g‘arbiy (Eron) qisimlarini ifodalaydi. Turon Sohibqironning asosiy yurtidir. U o‘z davlatini avvalo Turondan boshlab mustahkamlaganini qayd etadi. “Temur Tuzuklari”da keltirilishicha, Temur Turon va unga qo‘shni yurtlarda tartib- intizom o‘rnatish, adolatli qonunlarni joriy qilish, lashkar va raiyatni qattiq nazorat qilish orqali saltanatni qudratli qilgan. U Turonni siyosiy va madaniy markaz sifatida ko‘radi, chunki Samarqandni poytaxti qilib tanlagan.

Movorounnahr. Movorounnahr qadimdan O‘rta Osiyo- Turon, Turkiston deb atalgan hudud ekanligi ta’kidlanadi. Bu mintaqa qadimgi Turon nomi bilan sinonim tarzida ishlatiladi. Movorunnahr- arab tilidan olingan bo‘lib, “daryoning narigi tomoni” (ya’ni Amudaryoning narigi tarafi) ma’nosini bildiradi. Ushbu nom islom istilolari davrida boshlab keng qo‘llana boshlagan. Bu hudud qadimda Sug‘d, Baqtriya, Xorazim, So‘g‘diyona va boshqa ko‘plab qadimiy davlatlar va viloyatlarni o‘z ichiga olgan. Sharqning buyuk tarixchilari va geograflari uni ilm, madaniyat va savdo markazi sifatida ta’riflab kelganlar. Biz tarixchilarga mashhur bo‘lgan Tabariy o‘zining kitobida Movorounnahr musulmon lashkarlarining fath yo‘llarida asosiy hudud sifatida qayd etadi. U bu yerda Sug‘d, Buxoro

va Samarqandning strategik ahamiyatini ta’kidlaydi. Balazuriy o‘zining “Fotuh al-buldan” kitobida Movorounnahr arablar tomonidan fath etilishi jarayonlari keng yoritilgan. Olim Narshaxiy esa “Tarixi Buxoro” kitobida Movorounnahr markazlaridan biri sifatida Buxoro tarixiy rivoji batafsil bayon qilingan. U Buxoroni ilm ahli, savdo- sotiq va diniy markaz deb ataydi. Bayhaqiy esa o‘zining tarixiy yozuvlarida Movorounnahr saroy hayoti va siyosiy jarayonlari haqida muhim ma’lumotlar beradi.

Movorounnahr- Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi ulkan hudud bo‘lib, qadimdan O‘rta Osiyo sivilizatsiyasining markazlaridan biri hisoblangan. Arab geograflari “daryoning narigi tomoni” ma’nosida shu nomni qo‘llaganlar. Forsiy manbalarda esa Varorut deb atalgan. Bu hudud qadimdan sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan o‘lka bo‘lib, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Termiz, Xorazim kabi shaharlari Sharq va G‘arbning bog‘lovchi Ipak yo‘lining asosiy markazlari bo‘lgan. Men endi yurtimiz bo‘lmish Movorounnahrni davrlarga bo‘lib qisqacha ma’lumot beraman:

Qadimgi davr- Movorounnahr hududda so‘g‘d, baqtriya va xorazimiylarning qadimiy davlatlari shakillandi. Arxeologik topilmalar (Afrosiyob, Varaxsha, Tuproqqal’a) bu yerda yuqori madaniyat mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

Arablar davri (VIII asr)- 712-yilda Qutayba ibn Muslim yurishlari natijasida Movorounnahr xalifalik tarkibiga qushildi. Bu davrda islom dini keng yoyildi, Buxoro va Samarqand ilm- ma’rifat markazlariga aylandi.

Somoniylar davri (IX-X asr)- Movorounnahr markaziy hududga aylandi. Buxoro poytaxt bo‘lib, ilm-fan, adabiyot gullab-yashnadi. Rudakiy, Firdavsiy kabi adiblar shu davrga to‘g‘ri keladi.

Qoraxoniylar va saljuqiylar davri- Movorounnahrda turkiy sulolalar hukumronligi boshlanib, islomiy va turkiy madaniyat uyg‘unlashdi.

Chingiziylar davri- (XIII asr)- mo‘g‘ullar istilosi katta vayronagarchilik keltirgan bo‘lsa-da, keyinchalik bu hududda yangi siyosiy tartiblar shakillandi.

Temuriylar davri (XIV-XV asr)- Samarqand Temur saltanati markaziga aylandi. Ulug‘bek madrasasi, rasadxona va ilmiy maktablari Movorounnahrni jahon ilm-fanining yetakchi markazlaridan biriga aylantirdi.

Shayboniylar- Ashtarxoniylar davri- Movorounnahrda turkiy- islomiy davlat an’analari davom etdi, Buxoro xonligi barpo etildi.

Movorounnahr- bu nafaqat geografik hudud, balki Sharqiy uyg‘onishlarning beqiyos beshigi bo‘lib, jahon sivilizatsiyasi rivojida beqiyos o‘rin tutgan. Bu yurt ilm-fan, madaniyat, din va siyosat markazi sifatida asrlar davomida butun musulmon olamiga ta’sir ko‘rsatgan. Movorounnahrimiz tug‘risidagi ma’lumotlarimizning shuni o‘zi bilan cheklab qolamiz.

Hozirgi kunda yana bir quvonarli narsa ta’lim tizimining barcha bosqichlarida O‘zbekiston tarixi o‘qitilmoqda. Bu fanni o‘qitish va uni butun xalqlar ommasi ongiga, ayniqsa, yoshlar qalbiga singdirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti marhum Islom Abdug‘aniyevich Karimov Respublikaga birinchi rahbar bo‘lib kelganidan boshlaboq g‘amxo‘rlik qilib kelgan. Uning “ Biz o‘z tariximizni yo‘qqa chiqara olmaymiz.

Bu tariximizda ham qahramonona, ham fojeali sahifalar ko‘p bo‘lgan. Axir, keksa avlodlarning, ota-bobolarimizning kurashi va mehnatini inkor etib bo‘ladimi? Ular yarim feodal holidagi qoloq mamlakatni ijtimoiy va ilmiy texnikaviy jihatdan taraqqiy etgan zamonaviy darajaga ko‘tardilar. Bu aniq-ravshan dalilni hech kim rad qila olmaydi.

Ayni vaqtda sotsialistik qurilishning ko‘pgina bosqichlarida qo‘pol xatolar va buzilishlariga yo‘l qo‘yilganini ham hech kim, hech narsa shubha ostiga qo‘ya olmaydi” degan fikri tarixchilar uchun metodologik ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozimligi ko‘rsatildi. ” O‘tmishga berilgan baho, - deyiladi murojaatnomada, - albatta, xolisona, eng muhimi turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo‘lish zarur”. O‘tmishdagi buyuk sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftihar tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratish kerakligi aytiladi. Shu maqsadda, O‘zbekiston Milliy teleradiyokompaniyasi tarkibida ” O‘zbekiston tarixi” kanalini tashkil etib, ilmiy jamoatchilik, ijodkor ziyolilarimiz bilan birgalikda uning dasturlarini puxta shakllantirish kerak”ligi murojaatnomada alohida qayd etildi.

Men shunday qarorga keldim-ki, hamma narsani ko‘zga kuringan bir o‘ziga tortadigan jihati bo‘ladi. Men shu yusinda maqolamning o‘ziga tortadigan jihatini olishlikka qaror qildim. U ham bo‘lsa O‘zbek xalqining etnogenezi va uning shakllanishi bosqichlari haqida gapirsam maqsadga muvofiq bo‘ladi degan umiddaman. Vatanimiz tarixi bu o‘zbek xalqining tarixidir. Xalqimizning tarixi esa bu- Vatanimiz tarixidir. O‘zbek xalqining asosini tashkil etgan etnik guruhlar haqida fikr yuritilganida, hozirgi O‘zbekiston hududida qadimdan o‘troq yashab, sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan mahalliy so‘g‘diylar, baqtiriylar (baxtariylar), xorazimiylar, farg‘onaliklar, yarim chorvador qang‘lilar, ko‘chmanchi sak-massagetlar kabi etnik guruhlar tashkil etganini tushunmoq kerak. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo‘ylaridan turli davrlarda Movorounnahrda kirib kelgan etnik komponentlar ham o‘zbek etnogenezida ishtirok etganligi tarixdan ma‘lum. Shu urinda o‘zbek xalqini etnogenezining boshlang‘ich ”nuqtasi” va ”yakuni” masalasi katta qiziqish uyg‘otadi. Dastlab taniqli sharq manbalarining chuqur bilimdoni professor A.Y. Yakubovskiy 1941-yilda Toshkentda chop etilgan ” O‘zbek xalqining yuzaga kelishi haqida” nomli asarida o‘zbek etnogenezi Turk xoqonligidan boshlanadi, degan edi. Keyinroq o‘zbek etnogenezining boshlang‘ich nuqtasi antik davrgacha qadimiylashtirildi, ya‘ni professor S.P. Tolstov qadimgi Xorazimda olib borgan keng ko‘lamli arxeologik, antropologik va etnografik materiallarning yozma manba ma‘lumotlari bilan qiyosiy o‘rganib, antik davrda boshlab ” Qang‘ davlatining tarkibida va u egallab turgan mintaqalarda o‘zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan, bularning etnik tarkibi va tili bir xilda bo‘lmagan”, degan g‘oyani ko‘tarib chiqdi. Akademik Karim Shoniyozov esa o‘zining ” Qang‘ davlati va qang‘lilar” nomli hamda ”O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” nomli

oxirgi fundamental monografiyasida mana shu g‘oyani qat’iy himoya qilib chiqdi. Shuningdek, Qang’ davlati ichida miloddan avvalgi II milodiy I asr davomida mutlaqo yangi, turkiy tilli xalq- qang’ elati vujudga keladi. Bu elat eroniy tilli xalqlar bilan turkiy tilli qabilalarning aralashib, qorishib borishi natijasida tashkil topdi, degan xulosaga keldi.

Hozirgi kunda bu sana yanada qadimiylashtirildi, ya’ni so‘nggi bronza davri bilan belgilanmoqda. Bunday nuqtayi nazarni akademik A. Asqarov ilgari surmoqda. Uning ilmiy tadqiqotlari orqali o‘zbek etnogenezining boshlang‘ich nuqtasi so‘nggi bronza davriga borib taqalishi aytilib, o‘zbek elati xalq bo‘lib shakllanishi yakuni esa milodiy XI-XII asrlarda deb ko‘rsatiladi. Mazkur ulkan tarixiy davr ichida ajdodlarimiz bir necha etnomadaniy bosqichlarni bosib o‘tadi. O‘rta Osiyo hududiga turli turkiy qabilalar va etnik guruhlarining kirib kelishi bilan elatga xos etnik omillar birin- ketin shakllanishini ta’minladi va natijada o‘zbek xalqi shakllandi. Bu jarayonlarni quyidagi bosqichlarda ko‘rsatish mumkin: O‘zbek etnogenezining birinchi bosqichi- boshlanishi bronza davriga borib taqaladi. Ikkinchi bosqich- antik davrda, ya’ni Dayuechji qabilalari va hunnlarning bu zamindar paydo bo‘lishi bilan bog‘liq edi. Bu davrda turkiy etnos foydasiga tub o‘zgarishlar yuz beradi. Uchunchi bosqich- yurtimizning ichki hududlariga xioniyalar, kidariylar (toxarlar), eftaliylar kabi turkiy tilli qabila va elatlarning kirib kelishi bilan bog‘liqdir. To‘rtinchi bosqich- Turk xoqonligi davri (VI-VIII asrlar). Ma’lumki, VI asr o‘rtalarida Oltoyda, Janubiy Sibirda, Yettisuvda, Sharqiy Turkistonda joylashgan qabilalar birlashib, Turk xoqonligini tashkil etadi. O‘zbek xalqi etnogenezining keying bosqichida- IX asrning 40-yilligi Movorounnahrda shimoli sharqda tashkil topgan qarluqlar davlati muhim kasb etadi. Men bu bosqichlar haqida qisqacha ma’lumotlar taqdim etdim, umuman olganda Vatanimiz tarixi, Ozbekiston tarixi haqida gapirib beradigan bo‘lsam, buning uchun maqola emas kitoblar yozishimga tug‘ri keladi. Men shunchaki Vatanimizga bo‘lgan muhabbat haqida aks etgan bir maqola yozmoqchi edim, va shu maqsadim amalga oshgan degan umiddaman.

Xulosa

Yuqorida bayon etilgan mulohazalar shundan dalolat beradiki, tarixni o‘rganish nafaqat o‘tmishni eslash, balki bugungi kunimizni anglash va kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yish uchun ham muhimdir. Insoniyat tarixi, xususan, o‘z xalqining o‘tmishini o‘rganish- bu milliy g‘urur, vatanparvarlik va mustahkam ma’naviyatning asosiy manbalaridan biridir. Men ushbu maqolani yozishda ”Tarixdan hikoyalar -5” kitobidagi birinchi mavzu- ”O‘zbekiston – Vatanim manim” mavzusidan ilhomlandim. Ushbu mavzuda yurtimizning qadimiyligi, tabarrukligi va muqaddasligi ta’riflangan bo‘lib, bu mavzu menga ona Vatanimizni yanada chuqurroq sevisga va uni qadrlashga undadi. Shundan ruhlaniib, maqola davomida bildirgan fikrlarimni Vatanimiz tarixiy ildizlari bilan mustahkamlashga harakat qildim. Shu boisdan ham, ushbu mavzuni o‘rganish orqali biz milliy qadiryatlarimizni yanada mustahkamlaymiz, yosh avlodda Vatanga muhabbat, tarixga hurmat va kelajak uchun mas’uliyat tuyg‘ularini uyg‘otamiz. Xulosa qilib aytganda, tarixni sevis- Vatanimizni sevis, Vatanimizni sevis esa- kelajakni obod qilish demakdir.

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi prizidenti Shavkat Miromonivich Mirziyoyev.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Tarixdan hikoyalar 5. Mualliflar jamoasi.
2. O‘zbekiston tarixi. Sagdullayev.
3. Amir Temur ‘‘Tuzuklar’’.
4. Tarixi Buxoro. Narshaxiy.
5. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. I.A. Karimov.
6. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. I.A. Karimov.
7. Movorounnahr tarixi. SH. Vohidov.
8. O‘zbekiston tarixi manbalari. B. Ahmedov.
9. O‘zbekiston tarixi. R. Shamsutdinov, X. Mu‘minov.
10. Xalq so‘zi gazetasi. 2028-yil 29-dekabr.